BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M RAQAMLI ILMIY KENGASH

BOTANIKA INSTITUTI

IBRAGIMOV AKRAM JAVLIYEVICH

G‘ARBIY POMIR OLOY FLORASINING TAKSONOMIYASI VA FAZOVIY TUZILISHI (SURXONDARYO VILOYATI CHEGARASIDA)

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FAN DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘T: 581.9 (575.151)

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук

Contents of dissertation abstract of doctor of science (DSc)

Ibragimov Akram Javliyevich
G‘arbiy Pomir Oloy florasining taksonomiyasi va fazoviy tuzilishi (Surxondaryo viloyati chegarasida)……..... 3

Ибрагимов Акрам Жавлиевич
Таксономия и пространственная организация флоры Западного Памиро-Алая (в пределах Сурхандарьинской области)..... 29

Ibragimov Akram Javliyevich
Taxonomy and spatial structure of the flora of the Western Pamir-Alay (within Surkhandarya region)……..…… 58

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 62

BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M RAQAMLI ILMIY KENGASH

BOTANIKA INSTITUTI

IBRAGIMOV AKRAM JAVLIYEVICH

G‘ARBIY POMIR OLOY FLORASINING TAKSONOMIYASI VA FAZOVIY TUZILISHI (SURXONDARYO VILOYATI CHEGARASIDA)

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FAN DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Biologiya fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.2.DSC/B318 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Botanika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtorferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.botany.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Tojibayev Komil Sharobitdinovich**
biologiya fanlari doktori, akademik

Rasmiy opponentlar:

Yetakchi tashkilot:

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc.05/2025.27.12.B23.01M raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil -_____ kuni soat 14 00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-37-95, faks (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy, Tel.: (+99871) 262 37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil __-_____kuni tarqatildi.
(2026-yil __-oktabrdagi _____-raqamli reestr bayonnmasi).

B.A. Adilov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi o‘rinbosari,
b.f.d., katta ilmiy xodim

A.V. Maxmudov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
Kengash ilmiy kotibi, PhD.,
katta ilmiy xodim

H.F. Shomurodov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
Kengash qoshidagi Ilmiy
seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Global iqlim o‘zgarishi, tabiiy landshaftlarning transformatsiyasi va antropogen bosimning tobora kuchayib borishi sharoitida biologik xilma-xillikni saqlash florani an’anaviy tavsiflashdan uni fazoviy jihatdan tizimlashtirilgan va miqdoriy asoslangan tarzda o‘rganishga o‘tishni taqozo etadi. Zamonaviy floristika hududlardagi turlar tarkibini aniqlash, o‘zaro taqqoslash, turlarning tarqalish qonuniyatlarini aniqlash, endemizm va filogenetik xilma-xillikni baholash, shuningdek ayrim mintaqalarning asoslangan ma’lumotlar bilan ta’minlanganlik darajasini belgilash imkonini beruvchi standartlashtirilgan geobog‘langan ma’lumotlarga tobora ko‘proq tayanmoqda. Bunday tahlillarning eng samarali vositalaridan biri dala tadqiqotlari, gerbariy namunalari va raqamli axborot tizimlaridagi ma’lumotlarni yagona fazoviy makonda birlashtirish imkonini beruvchi to‘r tizimli xaritalash hisoblanadi.

Jahon miqyosida floristik ma’lumotlarning to‘liqligi va sifati hanuz keskin notekis bo‘lib qolmoqda. Bu muammo yuqori taksonomik xilma-xillik, murakkab orografiya, tabiiy sharoitlarning yaqqol kontrastligi, shuningdek endem va tor arealli turlarning ko‘pligi bilan ajralib turadigan Markaziy Osiyoda ayniqsa dolzarbdir. Shunga qaramasdan, mintaqa biologik xilma-xillikka oid global axborot tizimlarida yetarli darajada aks ettirilmagan. Qariyb ikki asr davomida to‘plangan ma’lumotlarning katta qismi aniq geografik koordinatalar bilan ta’minlanmagan tarixiy gerbariy kolleksiyalari, nashr etilgan flora konspektlari va dala qaydlari ko‘rinishida saqlanib kelmoqda.

Keyingi yillarda floristik tadqiqotlarga fazoviy usullarni izchil va keng miqyosda joriy etish bo‘yicha Markaziy Osiyoda yetakchi o‘rinlardan birini egallab kelayotgan O‘zbekistonda to‘r tizimli xaritalash yo‘nalishini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakat hududini botanik-geografik rayonlashtirishning zamonaviy sxemasi ishlab chiqilgani, “O‘zbekiston florasi” ning yangi nashri dasturi, “Raqamli tabiat” davlat dasturlarini amalga oshirilayotganligi, shuningdek ayrim tog‘li hududlar florasini inventarizatsiya qilish va to‘r tizimli xaritalashga bag‘ishlangan qator tadqiqotlar mazkur yo‘nalish rivojiga muhim turtki berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi[1], “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi[2] farmonlari, shuningdek, biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasi, o‘simlik dunyosi ob’ektlarining davlat kadastrini yuritish hamda “O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi”ni takomillashtirishga oid qarorlarda biologik resurslarni muhofaza qilish, floraning zamonaviy holatini baholash va raqamli ma’lumotlar bazasini yaratish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktabrdagi PF–5863-son «2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni // Qonun hujjatlari milliy bazasi. – 31.10.2019 y.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni

Mazkur tadqiqot doirasida tabiiy-geografik sharoitlari xilma-xil bo‘lgan yirik hududda 5×5 km o‘lchamli to‘r kataklari asosida to‘rli xaritalash amalga oshirilib, Markaziy Osiyodagi eng yirik geobog‘langan floristik ma’lumotlar massivi shakllantirildi hamda uning taksonomik, biogeografik va geofazoviy tahlili uchun raqamli axborot bazasi yaratildi. Floristik to‘yinganlikni baholashning turlar boyligi, yig‘ilmalar zichligi hamda yetakchi oilalar spektri barqarorligi ko‘rsatkichlarini o‘zaro integratsiya qiluvchi kompleks yondashuvi ishlab chiqildi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi[3]. Flora tarkibini inventarizatsiya qilish, o‘simliklarning geografik tarqalishini to‘r tizimi asosida xaritalash, gerbariy ma’lumotlarini raqamlashtirish, floristik xilma-xillikning fazoviy qonuniyatlarini aniqlash hamda biologik xilma-xillikni baholashga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy tadqiqot muassasalari va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, Finnish Museum of Natural History, University of Helsinki (Finlyandiya), Botanical Society of Britain and Ireland (Buyuk Britaniya va Irlandiya), Institute of Botany of the Czech Academy of Sciences (Chexiya), Jagiellonian University (Polsha), Sociedade Portuguesa de Botânica (Portugaliya), InfoFlora (Shveysariya), Institute of Botany, Chinese Academy of Sciences (Xitoy), Atlas of Living Australia, CSIRO (Avstraliya) kabi ilmiy markazlarda olib borilmoqda.

Flora tarkibini inventarizatsiya qilish, o‘simliklarning geografik tarqalishini to‘r tizimida xaritalash, floristik ma’lumotlarni umumlashtirish va geofazoviy tahlil qilish bo‘yicha olib borilgan dunyo tadqiqotlari natijasida bir qator natijalar olindi, jumladan: Yevropa yuksak o‘simliklarining 50×50 km^2 to‘r kataklari asosidagi geografik tarqalish atlaslari (University of Helsinki, Finlyandiya), o‘simlik turlarining 10×10 km^2 va 2×2 km^2 to‘r kataklari bo‘yicha tarixiy va zamonaviy tarqalishini qiyosiy baholash natijalari (Botanical Society of Britain and Ireland, Buyuk Britaniya va Irlandiya), gerbariy va dala tadqiqotlari ma’lumotlari asosida o‘simlik turlarining geografik tarqalish xaritalari (Institute of Botany of the Czech Academy of Sciences, Chexiya), o‘simliklarning 10×10 km^2 to‘r tizimi asosidagi geografik tarqalish xaritalari (Jagiellonian University, Polsha; Sociedade Portuguesa de Botânica, Portugaliya), floristik tarkib va o‘simliklarning geografik tarqalishini 5×5 km^2 to‘r kataklarida aks ettiruvchi interaktiv atlas (InfoFlora, Shveysariya), 1032 va 1101 turdagi muhofaza qilinadigan o‘simliklarning mos ravishda 50×50 km^2 va 20×20 km^2 to‘r kataklari asosidagi tarqalish tahlili natijasida aniqlangan biologik xilma-xillik markazlari hamda muhofazadagi bo‘shliqlar (Chinese Academy of Sciences, Xitoy), o‘simlik turlarining geografik koordinatalar bilan bog‘langan qaydlarini to‘r kataklari bo‘yicha umumlashtirish,

[3] Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi www.dissercat.com, www.researchgate.net, www.webofscience.com, www.scopus.com, www.gbif.org, researchportal.helsinki.fi , plantatlas2020.org, www.preslia.cz, flora-on.pt, www.infoflora.ch, www.sciencedirect.com va boshqa manbalar asosida tayyorlangan.

tahlil qilish va vizuallashtirishning geoinformatsion vositalari (Atlas of Living Australia, CSIRO, Avstraliya).

Dunyoda flora tarkibini inventarizatsiya qilish, o‘simliklarning geografik tarqalishini aniqlash, kamyob va endemik turlar holatini baholash hamda floristik xilma-xillikni saqlash bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan: gerbariy va dala ma’lumotlarini raqamlashtirish hamda yagona geobog‘langan ma’lumotlar bazalarini yaratish; o‘simliklarning geografik tarqalishini standart to‘r kataklari asosida xaritalash usullarini takomillashtirish; floristik boylik va turlar xilma-xilligining fazoviy qonuniyatlarini aniqlash; kamyob va endemik turlar areallarini baholash hamda ustuvor muhofaza hududlarini belgilash; turli tabiiy-geografik sharoitlarda floristik xilma-xillikni monitoring qilish va biologik xilma-xillikni saqlashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Flora taksonomik tarkibini aniqlash, konspektlarini tayyorlash va yuksak o‘simliklar tarqalishini tahlil etishning nazariy hamda metodik asoslari yirik xorijiy botanik olimlar tadqiqotlarida shakllangan. *Atlas Flora Europaea* asarining yaratilishi T.G. Tutin, V.H. Heywood, D.M. Moore, D.H. Valentine, S.M. Walters va D.A. Webb (Tutin et al., 1964–1980) ishlari bilan bog‘liq bo‘lsa, florani standartlashtirilgan tarzda xaritalash yo‘nalishining rivojlanishi F.H. Perring va S.M. Walters (1962) tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan. Yirik geografik miqyoslarda turlar boyligi va endemizmning fazoviy taqsimlanish qonuniyatlari W. Barthlott, G. Kier, J. Mutke va H. Kreft (1996-2007) tomonidan ishlab chiqilgan, xilma-xillikni taksonomik baholashdan turlarning evolyusion qarindoshlik munosabatlarini tahlil qilishga o‘tish esa P.D. Faith, C.O. Webb, J. Cavender-Bares va D.D. Ackerly (1992-2009) ishlari bilan bog‘liq. Qiyosiy floristika, floristik rayonlashtirish va florogenetik tahlilning fundamental qoidalari А.И. Толмачёв (1974), Б.А. Юрцев (1987), Л.И. Малышев (1975) ва Р.В. Камелин (1973, 1990, 2021) tadqiqotlarida rivojlantirilgan. MDH mamlakatlarida gerbariy namunalarini raqamlashtirish, ma’lumotlar bazalarini shakllantirish va to‘r tizimli xaritalashni qo‘llashning zamonaviy bosqichi, jumladan, floristik inventarizatsiyani geoaxborot tahlili va gerbariy materiallarini raqamli axborot tizimlariga jalb etish bilan uyg‘unlashtirgan А.П. Серёгин (2014) ishlari bilan bog‘liq.

Markaziy Osiyo florasi va o‘simliklar qoplamini tizimli o‘rganish asoslari М.Г. Попов, Е.П. Коровин, А.И. Введенский va К.З. Зокиров tomonidan yaratilgan bo‘lib, keyinchalik Р.В. Камелин asarlarida florogenetik jihatdan yanada asoslab berilgan. O‘zbekistonda ayrim oila va turkumlarni taksonomik o‘rganish, endemizm hamda mintaqaviy floralarni tahlil qilishga Ф.О. Хасанов, Г.А. Лазков va А.Н. Сенников va boshqalar salmoqli hissa qo‘shgan. Tadqiqotlarning sifat jihatdan yangi bosqichi К.Ш. Тожибаев va Н.Ю. Бешко (2016) ishlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular doirasida O‘zbekistonni botanik-geografik rayonlashtirishning zamonaviy sxemasi ishlab chiqilgan, “O‘zbekiston florasi” ning yangi ko‘p jildli nashri dasturi va “Raqamli tabiat” davlat dasturi amalga oshirilmoqda.

Avvalgi tadqiqotlarning ko‘lami katta bo‘lishiga qaramasdan, ular asosan alohida tog‘ tizimlari, botanik-geografik rayonlar, balandlik mintaqalari yoki muayyan taksonomik guruhlarni qamrab olgan. Mazkur tadqiqotga qadar Surxondaryo viloyati doirasidagi G‘arbiy Pomir-Oloy florasining butun hududni qamrab olgan zamonaviy konspekti mavjud emas edi, to‘r tizimli xaritalash asosida yagona geobog‘langan ma’lumotlar massivi ham shakllantirilmagan. Alohida kataklardagi ma’lumotlarning to‘liqligi va strukturaviy reprezentativligini baholash, yig‘malar intensivligining notekisligi kuzatilgan turlar boyligiga qay darajada ta’sir ko‘rsatishini aniqlash, shuningdek yetarlicha o‘rganilmagan maydonlarni turlar boyligi ehtimol tabiiy ravishda past bo‘lgan hududlardan farqlash masalalari maxsus metodik yechimini topmagan edi.

Mazkur tadqiqotda G‘arbiy Pomir-Oloyning Surxondaryo viloyati doirasidagi qismi florasi ilk bor yaxlit hududiy birlik sifatida o‘rganilib, zamonaviy taksonomik tarkibi aniqlandi, floristik konspekti tuzildi va turlarning geografik tarqalishi to‘r tizimi asosida xaritalandi. Gerbariy va dala ma’lumotlarini yagona geobog‘langan bazaga birlashtirish orqali floristik boylikning fazoviy taqsimlanishi, to‘r kataklarining o‘rganilganlik darajasi va ma’lumotlarning reprezentativligini baholashga qaratilgan tizimli tahliliy yondashuv shakllantirildi. Natijada, yig‘malar intensivligidagi tafovutlarni hisobga olgan holda floristik ma’lumotlardagi bo‘shliqlarni aniqlash, yetarlicha o‘rganilmagan hududlarni ajratish, kamyob va endemik turlar monitoringi hamda floristik xilma-xillikni muhofaza qilishning ilmiy asoslarini takomillashtirish imkoniyati yaratildi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasidagi F5-FA-064792 “O‘zbekiston florasidagi polimorf oilalarning taksonomik reviziyasi” (2021–2025) fundamental loyihasi hamda “G‘arbiy Hisor, Hisor-Darvoz va Panj oldi okruglari florasini to‘r tizimi asosida xaritalash (Surxondaryo viloyati)” (2021–2024) davlat dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: To‘r tizimli xaritalash hamda floristik, geoaxborot va filogenetik ma’lumotlarni o‘zaro integratsiyalash asosida Surxondaryo viloyati doirasidagi G‘arbiy Pomir-Oloy yuksak o‘simliklar florasining zamonaviy taksonomik tarkibini aniqlash, shuningdek uning taksonomik, fazoviy va filogenetik tashkillanish xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Surxondaryo viloyati doirasidagi G‘arbiy Pomir-Oloy yuksak o‘simliklar florasining zamonaviy taksonomik tarkibini aniqlash va uning konspektini tuzish;

Surxondaryo viloyati doirasidagi G‘arbiy Pomir-Oloy yuksak o‘simliklar florasini to‘r tizimli xaritalash;

florani kompleks tahlil qilish, uning taksonomik tuzilishi, hayotiy shakllarning taqsimlanishi, botanik-geografik rayonlar floralarining hududiy differensiatsiyasi va o‘zaro o‘xshashlik xususiyatlarini aniqlash;

Surxondaryo viloyati doirasidagi G‘arbiy Pomir-Oloy florasi endemizm fraksiyasining tarkibi va fazoviy tuzilishini aniqlashtirish, areali faqat Surxondaryo viloyati bilan cheklangan endem turlarning tarkibi va tarqalishiga oid

ma’lumotlarni yangilash, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan turlar jamlangan, muhofaza qilish uchun ustuvor ahamiyatga ega hududlarni aniqlash;

Surxondaryo viloyati doirasidagi G‘arbiy Pomir-Oloy floristik majmualarida turlar boyligi, filogenetik xilma-xillik va filogenetik tuzilishning balandlik gradienti, o‘rtacha yillik harorat hamda yillik yog‘in miqdori gradientlari bo‘ylab o‘zgarish qonuniyatlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti G‘arbiy Pomir-Oloy florasining Surxondaryo viloyati chegarasidagi yuksak o‘simliklari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti Surxondaryo viloyati doirasidagi G‘arbiy Pomir-Oloy yuksak o‘simliklar florasining taksonomik, biomorfologik, fazoviy va filogenetik tuzilishi, uning hududiy differensiatsiyasi va endemizm fraksiyasi, shuningdek turlar hamda filogenetik xilma-xillikning balandlik va iqlim gradientlari bo‘ylab o‘zgarish qonuniyatlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Disertatsiyada floristikaning an’anaviy va zamonaviy usullaridan foydalanildi. Floraning fazoviy tuzilishi geoaxborot texnologiyalarini qo‘llagan holda to‘r tizimli xaritalash usuli asosida o‘rganildi. Filogenetik xilma-xillikni aniqlashda zamonaviy statistik va filogenetik usullar qo‘llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ilk bor, G‘arbiy Pomir-Oloyning Surxondaryo viloyati doirasidagi qismi yuksak o‘simliklar florasining 96 oila va 615 turkumga mansub 2202 turni qamrab olgan taksonomik tarkibi aniqlangan, tadqiq etilgan hudud o‘simliklarining tur tarkibi va geografik tarqalishiga oid ma’lumotlarni o‘zida aks ettirgan flora konspekti tayyorlangan;

O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarning yetakchi olimlari bilan hamkorlikda amalga oshirilgan kompleks tadqiqotlar natijasida fan uchun yangi bo‘lgan bir qator o‘simlik turlari tavsiflangan, milliy va mintaqaviy miqyosdagi floristik topilmalar asosida qator turlarning O‘zbekiston va Pomir-Oloy florasidagi tarkibi hamda tarqalish chegaralari to‘g‘risidagi tasavvurlar kengaytirilgan;

Markaziy Osiyoda maydoni jihatdan yirik, tabiiy sharoitlari xilma-xil bo‘lgan hudud florasining 5×5 km fazoviy aniqlikdagi to‘r tizimli xaritalash ishlari amalga oshirilgan hamda mintaqadagi eng yirik geobog‘langan ma’lumotlar massivi shakllantirilgan, bu esa biologik hujjatlashtirilgan turlar xilma-xilligining fazoviy notekisligini aniqlash imkonini bergan;

G‘arbiy Pomir-Oloyning Surxondaryo viloyati doirasidagi beshta botanik-geografik rayoni floralarining qiyosiy tahlili o‘tkazilgan, ularning hududiy differensiatsiyalanish darajasi, tur tarkibining o‘ziga xosligi aniqlangan hamda qabul qilingan botanik-geografik rayonlashtirish sxemasining asosli ekanligi tasdiqlangan;

Floraning G‘arbiy Pomir-Oloy hamda Surxondaryo viloyatining endemlarini qamrab olgan endemizm fraksiyasi tarkibi shakllantirilgan, ularning fazoviy tarqalishiga oid ma’lumotlar yangilangan, tor arealli hamda muhofaza qilinadigan turlar jamlangan asosiy hududlar aniqlangan;

Markaziy Osiyo tog‘ floralari uchun yagona geofazoviy tizim doirasida floristik komplekslarning tur boyligi, filogenetik xilma-xilligi va filogenetik

tuzilishining uchta ekologik gradient – balandlik, harorat va yog‘in miqdori bo‘ylab o‘zgarish qonuniyatlari tadqiq etilgan; taksonomik va evolyusion xilma-xillikning o‘rta balandlik mintaqalarida eng yuqori darajaga yetishi, balandtog‘ mintaqasida filogenetik klasterlanishning kuchayishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

G‘arbiy Pomir-Oloyning Surxondaryo viloyati doirasidagi qismi florasi, jumladan, endem va O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan turlarning tarqalishiga oid geografik koordinatalarga bog‘langan ma’lumotlar elektron bazasi hamda to‘r tizimli xaritalar to‘plami shakllantirilgan. Tayyorlangan materiallardan o‘simlik dunyosi davlat kadastrini yuritish, flora monitoringini amalga oshirish va navbatdagi dala tadqiqotlarini rejalashtirishda foydalanish mumkin;

kamyob va muhofaza qilinadigan turlarning zamonaviy uchrash joylari aniqlashtirilgan, ayrim turlarning yangi populyatsiyalari aniqlangan hamda maqsadli o‘rganish va muntazam monitoringni talab etadigan hududlar belgilangan. Olingan ma’lumotlardan O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobining navbatdagi nashrini tayyorlash va kamyob o‘simliklarni muhofaza qilish choralarini takomillashtirishda foydalanish mumkin;

Zygophyllum bucharicum uchun muhofaza maqomi IUCN mezonlari asosida baholangan hamda uning populyatsiyalari va o‘sish muhitlarini saqlab qolish bo‘yicha chora-tadbirlar taklif etilgan;

taksonomik xatlovdan o‘tkazish, to‘r tizimli xaritalash, endem va muhofaza qilinadigan turlar hamda filogenetik xilma-xillik tahlili natijalaridan mintaqaviy floristik ma’lumotnomalarni tayyorlash, monitoring dasturlarini ishlab chiqish va o‘simliklar xilma-xilligini muhofaza qilishning hududiy ustuvor yo‘nalishlarini asoslashda foydalanish mumkin;

turlarni to‘r tizimli xaritalash natijalari GMOCA.org axborot platformasiga integratsiya qilingan bo‘lib, bu ma’lumotlardan o‘simlik dunyosi kadastrini yuritish, flora monitoringini amalga oshirish, keyingi dala tadqiqotlarini rejalashtirish va geofazoviy tahlillarni o‘tkazishda ochiq foydalanish imkonini beradi;

dissertatsiya materiallaridan oliy ta’lim muassasalarida botanika, floristika, o‘simliklar sistematikasi, biogeografiya va biologik xilma-xillikni muhofaza qilish fanlarini o‘qitish jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada zamonaviy floristik, taksonomik, geoaxborot, statistik va filogenetik usullarning qo‘llanilganligi, dala tadqiqotlari va adabiyot manbalari ma’lumotlarining tanqidiy tahlil qilinganligi, olingan natijalarning nazariy ma’lumotlarga mos kelishi hamda aniqlangan qonuniyatlarning ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, to‘r tizimli xaritalash asosida shakllantirilgan Markaziy Osiyodagi eng yirik geobog‘langan floristik ma’lumotlar massivining GMOCA.org platformasida ochiq joylashtirilganligi dastlabki ma’lumotlarni tekshirish va geofazoviy tahlillarni takroran bajarish imkonini beradi. Tadqiqot natijalarining respublika va xalqaro ilmiy nashrlarda, jumladan, Scopus va Web of Science bazalarida indekslanadigan jurnallarda chop etilganligi, ma’lumotlarning bir qismi xalqaro biologik xilma-

xillik axborot tizimlariga kiritilganligi hamda amaliy natijalarning tegishli davlat tashkilotlari tomonidan tasdiqlanib, amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati G‘arbiy Pomir-Oloyning Surxondaryo viloyati doirasidagi qismi florasining zamonaviy taksonomik tarkibi aniqlanganligi, flora konspekti tayyorlanganligi va kompleks floristik tahlil amalga oshirilganligi bilan izohlanadi. Olingan natijalar floraning taksonomik, geofazoviy va botanik-geografik tuzilishini aniqlashtirish, uning mintaqaviy xususiyatlarini ochib berish, shuningdek, fan uchun yangi taksonlar va turli darajadagi floristik topilmalar asosida turlar tarkibi hamda tarqalishiga oid ma’lumotlarni to‘ldirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shakllantirilgan geografik koordinatalarga bog‘langan ma’lumotlar massivi, to‘r tizimli xaritalash materiallari va raqamli xaritalardan o‘simlik dunyosi davlat kadastrini yuritish, flora monitoringini amalga oshirish, dala tadqiqotlarini rejalashtirish hamda alohida hududlarning tabiatni muhofaza qilish ahamiyatini baholashda foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari kamyob, endem va O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan o‘simlik turlarini muhofaza qilish choralarini takomillashtirish, shuningdek, florani raqamli xaritalash ishlarini yanada rivojlantirish uchun ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. G‘arbiy Pomir-Oloyning Surxondaryo viloyati doirasidagi qismi florasini tadqiq etish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

G‘arbiy Pomir-Oloy florasida tarqalgan kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi *Zygophyllum bucharicum* B.Fedtsch. turining IUCN toifalari va mezonlari asosida baholangan muhofaza maqomi bo‘yicha ma’lumotlar The IUCN Red List of Threatened Species xalqaro ro‘yxatiga kiritilgan (https://dx.doi.org/10.2305/-IUCN.UK.2024-1.RLTS.T63490A244024776.en). Natijada, turning global miqyosdagi yo‘qolib ketish xavfini xalqaro mezonlar asosida baholash, tabiiy populyatsiyalarini monitoring qilish va ilmiy asoslangan muhofaza choralarini ishlab chiqish imkonini bergan.

G‘arbiy Pomir-Oloy hududida 2021–2024-yillarda olib borilgan dala tadqiqotlari davomida yig‘ilgan 48 oila, 194 turkum va 323 turga mansub 2225 ta gerbariy namunalari geobog‘langan ma’lumotlari Global bioxilma-xillik ma’lumotlari tizimiga (www.gbif.org, GBIF) joriy etilgan (2026-yil 8-yanvardagi №064-sonli ma’lumotnoma). Natijada, GBIF xalqaro ma’lumotlar bazasini Surxondaryo viloyatida tarqalgan o‘simlik turlari bo‘yicha ma’lumotlar bilan boyitish hamda ularning geografik tarqalishini global miqyosda tahlil qilish imkonini bergan.

G‘arbiy Pomir-Oloy florasining 1100 dan ortiq turiga mansub 10 000 dan ziyod gerbariy namunalari O‘zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) fondiga topshirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2026-yil 27-iyuldagi №4/1255-2128-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, O‘zbekiston Milliy gerbariysi fondini boyitish, Botanika institutining “O‘zbekiston florasini to‘r tizimli xaritalash” bo‘yicha davlat dasturi hamda “O‘zbekiston florasining yangi

jildlarini tayyorlash” amaliy loyihasi doirasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni gerbariy materiallari bilan ta’minlash imkonini bergan.

G‘arbiy Pomir-Oloyning Surxondaryo viloyati doirasidagi qismi floristik tarkibi va o‘simlik turlarining geografik tarqalishi bo‘yicha GAT texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan to‘r tizimli xaritalar va amaliy tavsiyalar O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2026-yil 28-apreldagi №01/01-01-309-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, Oliy o‘quv yurtlarining Botanika, Ekologiya va o‘simlikshunoslik fanlarining o‘quv dasturlariga kiritilib, “O‘simliklar geografiyasi”, “Botanika 2-qism” nomli darsliklar hamda “O‘simliklar geografiyasi” nomli o‘quv qo‘llanma nashr etilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta maqola, jumladan, 11 ta respublika va 5 ta xorijiy (Scopus/WoS) jurnallarda nashr etilgan. Shuningdek, 2 xalqaro va 2 respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda tezislar nashr etilgan.).

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, shartli belgi va atamalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 163 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan. Tadqiqotlarning maqsadi, vazifalari hamda obyekti va predmetlari tavsiflangan, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Surxondaryo viloyati doirasida G‘arbiy Pomir-Oloy florasining o‘rganilish tarixi, tadqiqot obyekti va usullari**” deb nomlangan birinchi bobi uchta bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘limda tadqiqot hududining tabiiy-geografik sharoitlariga, jumladan relyefi, geologik tuzilishi, iqlimi, gidrografik tarmog‘i va tuproq qoplamiga kompleks tavsif berilgan.

Birinchi bobning ikkinchi bo‘limi Surxondaryo viloyati doirasidagi G‘arbiy Pomir-Oloy florasining o‘rganilish tarixi va darajasiga bag‘ishlangan. Unda XIX asrning ikkinchi yarmidan hozirgi vaqtgacha olib borilgan floristik tadqiqotlarning asosiy bosqichlari tizimlashtirilib, ularning muhim natijalari umumlashtirilgan. Tur tarkibi va tarqalishiga oid to‘plangan ma’lumotlarning to‘liqligi, ishonchliligi va hududiy qamrov darajasi tanqidiy baholangan.

Flora tarkibini xatlovdan o‘tkazish, turlar tarkibini shakllantirish va ma’lumotlarni geografik bog‘lashda aniqlangan bo‘shliqlar floraning taksonomik tarkibi hamda fazoviy differensiatsiyasini kompleks o‘rganish zarurligini asoslab bergan.

Bobning uchinchi bo‘limida tadqiqot obyekti, to‘plangan ilmiy ma’lumotlar va ularni tahlil qilish usullari bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Surxondaryo viloyati doirasidagi G‘arbiy Pomir-Oloy florasining konspekti”** deb nomlangan ikkinchi bobi uchta bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘lim “O‘zbekiston floristik xilma-xilligini to‘r tizimli xaritalashning nazariy va metodik asoslari” deb nomlangan bo‘lib, uning doirasida floraning fazoviy tuzilishini o‘rganishda to‘r tizimli xaritalashning metodologik asoslari bayon etilgan. Markaziy Osiyo va O‘zbekistondagi geobog‘langan floristik ma’lumotlarning hozirgi holati tanqidiy baholangan. Jumladan, mintaqa gerbariy fondlarida saqlanayotgan uch milliondan ortiq namunalarning atigi 10-12% qismi geobog‘langan bo‘lib, bu florani ham alohida hududlar, ham yirik mintaqalar miqyosida fazoviy tahlil qilish imkoniyatlarini jiddiy cheklaydi. Markaziy Osiyo va Afg‘onistonda 658 mingga yaqin floristik qaydlar tahlili ularning 66.4% qismi avtomobil yo‘llaridan besh kilometrgacha bo‘lgan masofada jamlanganini ko‘rsatdi. Bu holat to‘plangan ma’lumotlarning transport orqali oson yetib boriladigan uchastkalar tomon sezilarli darajada og‘ishini hamda borish qiyin bo‘lgan hududlarning yetarlicha o‘rganilmaganini tasdiqlaydi (Karimov et al., 2025).

Shu nuqtai nazardan, mazkur dissertatsiya doirasida G‘arbiy Pomir-Oloyning yirik hududlaridan biri bo‘lgan Surxondaryo viloyati florasini to‘r tizimli xaritalash Markaziy Osiyoda ushbu ilmiy yo‘nalish rivojining yangi bosqichini ifodalaydi. Shakllantirilgan ma’lumotlar massivi yuksak o‘simliklarning 2202 turiga tegishli 67.2 mingdan ortiq geobog‘langan ma’lumotlarni qamrab oladi va hajmi hamda fazoviy qamrovi bo‘yicha Markaziy Osiyodagi eng yirik geobog‘langan floristik ma’lumotlar majmuasini tashkil etadi. Uning yaratilishi tarqoq ma’lumotlar va ayrim botanik-geografik rayonlar doirasidagi tadqiqotlardan yirik hudud florasini geofazoviy baholashga o‘tish imkonini berdi. Natijada muhim axborot va metodik bo‘shliq to‘ldirilib, floraning taksonomik hamda filogenetik xilma-xilligini tahlil qilish, turlar tarqalishining fazoviy qonuniyatlarini aniqlash, atrof-muhit omillari ta’sirini baholash va o‘simliklar xilma-xilligini muhofaza qilishning ustuvor yo‘nalishlarini ilmiy asoslash uchun mustahkam zamin yaratildi.

Ikkinchi bo‘lim “**Yangi taksonlar va floristik topilmalar**” deb nomlangan bo‘lib, unda 2008-2026 yillarda olib borilgan dala tadqiqotlari hamda TASH, LE va MW gerbariy fondlarida saqlanayotgan materiallarni tanqidiy qayta ko‘rib chiqish natijalari umumlashtirilgan. Bo‘limda keltirilgan natijalarning bir qismi muallifning shaxsiy dala tadqiqotlariga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika institutining “Surxondaryo viloyati doirasida Janubiy-G‘arbiy Hisor, Hisor-Darvoz va Panjoldi botanik-geografik okruglari florasini to‘r tizimli xaritalash” davlat ilmiy dasturi doirasida olingan ma’lumotlarga asoslangan (2021-2024 yy.)

Umuman, turli darajadagi to‘qqizta taksonomik va floristik yangilik aniqlangan bo‘lib, ular orasida fan uchun yangi bo‘lgan ikkita tur hamda O‘zbekiston florasi uchun ilk bor qayd etilgan uchta tur mavjud. Fan uchun yangi bo‘lgan *Fritillaria yakutiae* Turginov & Tojibaev va *Iris anvarbekii* Tojibaev & Ortiqov turlarining mustaqil taksonomik maqomi morfologik hamda molekular-filogenetik ma’lumotlar majmuasi asosida isbotlangan (Yusupov et al., 2025; Tojibaev et al., 2025). Qolgan floristik topilmalar bo‘yicha turlarning geografik tarqalishi, ekologik xoslanishi va botanik-geografik rayonlashtirish tizimidagi o‘rni aniqlashtirilgan, yangi tarqalish nuqtalari esa to‘r tizimli xaritalarda aks ettirilgan.

Ikkinchi bobning “Flora konspekti” deb nomlangan uchinchi bo‘limida tadqiqot hududida yovvoyi holda o‘suvchi yuksak o‘simliklarning taksonomik tarkibi keltirilgan. Konspekt muallifning 2008-2024 yillarda olib borgan dala tadqiqotlari, 2021-2024 yillarda davlat dasturi doirasida hamkorlikda amalga oshirilgan izlanishlari, TASH, MW va LE gerbariy fondlarida saqlanayotgan namunalarni ko‘rib chiqish, shuningdek Plantarium, GBIF va nashr etilgan floristik hamda taksonomik manbalar ma’lumotlarini tahlil qilish asosida tuzilgan. Natijada hudud florasi tarkibida 96 oila va 615 turkumga mansub 2202 tur mavjudligi aniqlangan.

Sporali o‘simliklar oilalarining taksonomik chegaralari PPG I (2016) tizimiga, ochiq urug‘li o‘simliklarniki Christenhusz et al. (2011) tasnifiga, yopiq urug‘li o‘simliklarniki esa APG IV (2016) tizimiga muvofiq qabul qilingan. Turkumlarning taksonomik hajmi va chegaralari zamonaviy molekular-filogenetik tadqiqotlar natijalarini hisobga olgan holda belgilangan. Qabul qilingan nomlarni aniqlashda asosiy manba sifatida Plants of the World Online (POWO) ma’lumotlar bazasidan foydalanilgan. Undagi taksonomik talqinlar bilan tafovutlar mavjud bo‘lgan hollarda so‘nggi filogenetik reviziyalar hamda “O‘rta Osiyo o‘simliklari aniqlagichi”da (1961–1993) keltirilgan ma’lumotlarga ustuvorlik berilgan.

Konspektda oilalar yuqorida ko‘rsatilgan tizimlarda qabul qilingan filogenetik ketma-ketlikda, turkumlar, turlar va tur ichi taksonlari esa tegishli taksonomik kategoriyalar doirasida alifbo tartibida joylashtirilgan. Har bir takson uchun qabul qilingan ilmiy nom, uning muallifi va International Plant Names Index (IPNI) talablariga muvofiq standartlashtirilgan nomenklatura iqtibosi, shuningdek mintaqaviy floristik adabiyotlar va gerbariy kolleksiyalari uchun ahamiyatli bo‘lgan asosiy sinonimlar keltirilgan.

Taksonomik va nomenklatura ma’lumotlari geografik, ekologik hamda muhofazaga oid tavsiflar bilan to‘ldirilgan. Har bir tur uchun uning umumiy areali, Boysun, Sangardak-To‘palang, Ko‘hitang, Surxon-Sherobod va Bobotog‘ botanik-geografik rayonlarida tarqalishi, balandlik diapazoni, ekologik va edafik xoslanishi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobidagi maqomi ko‘rsatilgan. Endem va tor arealli turlar uchun ularning maqomi hamda ma’lum tarqalish nuqtalari alohida qayd etilgan.

Dissertatsiyaning “**Flora tarkibining tahlili**” deb nomlangan uchinchi bobi oltita bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘lim tadqiqot hududi florasining taksonomik tarkibiga bag‘ishlangan. Dala tadqiqotlari, gerbariy namunalari, ilmiy adabiyotlar va elektron manbalar ma’lumotlarini umumlashtirish natijasida Surxondaryo

viloyati doirasidagi G‘arbiy Pomir-Oloy florasi 96 oila va 615 turkumga mansub 2202 tur yuksak o‘simliklarni qamrab olishi aniqlandi. Bu ko‘rsatkich O‘zbekiston florasi turlar tarkibining qariyb yarmiga va Markaziy Osiyo florasining taxminan 23% to‘g‘ri keladi. Mazkur natija tadqiqot hududini mintaqaviy floristik xilma-xillikning eng yirik markazlaridan biri sifatida baholash imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval

Tadqiqot hududidagi asosiy taksonomik birliklarning statistik ko‘rsatkichlari

Taksonomik birliklar	Oilalar soni	%	Turkumlar soni	%	Turlar soni	%
Polypodiophyta	4	4.17	4	0.65	5	0.23
Pinophyta	2	2.08	2	0.33	7	0.32
Magnoliophyta	90	93.75	609	99.02	2190	99.45
Magnoliopsida	74	77.08	501	81.46	1759	79.88
Liliopsida	16	16.67	108	17.56	431	19.57
Jami:	96	100	615	100	2202	100

Tadqiqot hududining floristik spektri keskin asimmetrik tuzilishga ega. Unda yopiq urug‘lilar deyarli mutlaq ustunlik qiladi. Magnoliophyta tarkibida ikki urug‘pallalilar (Magnoliopsida) yaqqol ustun bo‘lib, ularning bir urug‘pallalilarga (Liliopsida) nisbati 4.1:1 tashkil etadi. Bunday taksonomik tuzilish Markaziy Osiyodagi tog‘li floralarining umumiy xususiyatini aks ettirish bilan birga, floraning tarixiy-evolyusion rivojlanishi notekis kechganini ham ko‘rsatadi. Bunda asosiy diversifikasiya jarayonlari yopiq urug‘lilarning ayrim evolyusion jihatdan faol liniyalarida jamlangan (Камелин, 1973, 1990).

Floraning taksonomik to‘yinganligini baholash uchun bitta oilaga to‘g‘ri keladigan turlarning o‘rtacha soni ko‘rsatkichidan foydalanildi. Tadqiq etilgan florada mazkur ko‘rsatkich qariyb 23 turni tashkil etib, G‘arbiy Tiyonshon (Тожибаев, 2010), Varzob daryosi havzasi (Камелин, 1973, 2021), shuningdek, O‘zbekistonning Qashqadaryo (Тожибаев и др., 2018) va Jizzax viloyatlari (Тожибаев и др., 2021) floralari uchun qayd etilgan tegishli ko‘rsatkichlardan yuqori ekanligi aniqlandi. Tog‘ daryosi havzasi va alohida botanik-geografik rayondan tortib, yirik tog‘ tizimlari hamda butun Markaziy Osiyogacha bo‘lgan turli hududiy miqyosdagi floralarni qiyosiy tahlil qilish natijasida tadqiqot maydoni kengaygan sari bitta oilaga to‘g‘ri keladigan turlarning o‘rtacha soni ortib borishiga xos umumiy tendensiya aniqlandi (2-jadval).

2-jadval

Yirik tog‘ tizmalar va Markaziy Osiyo florasi bo‘yicha mavjud asosiy statistik ko‘rsatkichlar

Tadqiqot hududi	Tadqiqotchi, yili	Turlar soni	Oilalar soni	O‘rtacha*
Torqopchig‘ay botanik-geografik rayoni	Абдураимов (2021)	896	74	12
Varzob havzasi florasi	Камелин (2021)	1535	99	15
Qashqadaryo viloyati	Тожибаев и др., (2019)	2022	97	21
Tiyon-Shon	Sennikov and Tojibaev (2021)	4283	116	37

Markaziy Osiyo	Li and Tojibaev (2025)	9533	138	69

** yaxlitlab olingan*

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlar aniqlangan qonuniyatni tasdiqlaydi. Tadqiqot hududi maydoni kengaygan sari bitta oilaga to‘g‘ri keladigan turlarning o‘rtacha soni ham izchil ortib boradi. Bu mazkur ko‘rsatkichni talqin etishda tadqiqot hududining ko‘lamini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Binobarin, hudud ko‘lami tur boyligining shakllanishida muhim, ammo yagona omil emas. Yirik mintaqalar miqyosida maydonning kengayishi, odatda, o‘sish muhitlari va ekologik nishalar doirasining ortishi bilan kechadi. Alohida botanik-geografik rayonlar darajasida esa ekologik geterogenlik, tog‘ massivlarining izolyasiyalanganligi, substrat xususiyatlari va tur hosil bo‘lishning mahalliy markazlari yetakchi ahamiyat kasb etishi mumkin.

Floraning yetakchi 15 ta oilasi 1649 turni birlashtirib, umumiy turlar sonining 74.89 % ini tashkil etadi (3-jadval).

3-jadval

Tadqiqot hududida polimorf oila va turkumlarni tutgan ulushi

Oilalar va ularning tarkibidagi turlarga boy turkumlar		**Turkumlar soni**	**%**	**Turlar soni**	**%**
Asteraceae	*Artemisia, Cousinia*	78	12.68	285	12.94
Fabaceae	*Astragalus, Oxytropis*	28	4.55	264	11.99
Poaceae	*Aegilops, Bromus, Poa*	67	10.89	176	7.99
Brassicaceae	*Alyssum, Lepidium, Strigosella*	54	8.78	129	5.86
Lamiaceae	*Phlomoides, Salvia, Scutellaria*	29	4.72	125	5.68
Apiaceae	*Elwendia, Ferula, Seseli*	48	7.80	98	4.45
Boraginaceae	*Heliotropium, Lappula, Onosma*	23	3.74	83	3.77
Caryophyllaceae	*Dianthus, Silene*	19	3.09	82	3.72
Amaranthaceae	*Atriplex, Climacoptera*	36	5.85	78	3.54
Ranunculaceae	*Delphinium*	14	2.28	70	3.18
Amaryllidaceae	*Allium*	3	0.49	65	2.95
Liliaceae	*Gagea, Tulipa*	3	0.49	58	2.63
Rosaceae	*Potentilla, Rosa*	14	2.28	47	2.13
Polygonaceae	*Calligonum, Polygonum, Rumex*	9	1.46	45	2.04
Cyperaceae	*Carex, Cyperus*	10	1.63	44	2
Jami:		435	70.73	1649	74.89

Yetakchi o‘rinlarni Asteraceae, Fabaceae va Poaceae oilalari egallaydi. Ularning bunday ketma-ketligi Qadimgi O‘rta Yer dengizi floralariga xos umumiy qonuniyatlarni aks ettiradi hamda ayni paytda Afg‘on-Turkiston provinsiyasining flora modeliga muvofiq keladi (Камелин, 1973, 1990, 2021; Тожибаев, 2010; Sennikov and Tojibaev, 2021). Keyingi guruhni Brassicaceae, Lamiaceae va Apiaceae oilalari tashkil etib, ular ham Markaziy Osiyo tog‘ floralarini tavsiflashda muhim diagnostik ahamiyatga ega (Хохряков, 2002).

Yetakchi turkumlar spektrida har biri kamida 14 turni qamrab olgan 15 ta turkum ajratildi. Ular jami 512 turni birlashtirib, flora umumiy turlar sonining 23.3% tashkil etadi (4-jadval).

4-jadval

Tadqiqot hududi florasi yetakchi turkumlarining qiyosiy ko‘rsatkichlari

Turkumlar	Surxondaryo		O‘zbekiston		Markaziy Osiyo	
	Turlar soni	%	Turlar soni	%	Turlar soni	%
Astragalus	141	6.40	279	6.36	647	6.71
Allium	61	2.77	136	3.10	286	2.96
Cousinia	50	2.27	130	2.96	248	2.57
Gagea	40	1.82	80	1.82	95 (8)	0.98
Ranunculus	28	1.27	44	1.00	93 (9)	0.96
Artemisia	27	1.23	50	1.14	143 (5)	1.48
Carex	21	0.95	42	0.95	112 (6)	1.16
Oxytropis	21	0.95	63	1.43	194 (4)	2.01
Scutellaria	21	0.95	39	0.89	92 (10)	0.95
Phlomoides	20	0.91	44	1.00	83 (11)	0.86
Lappula	19	0.86	31	0.70	73 (12)	0.75
Ferula	17	0.77	54	1.23	105 (7)	1.08
Veronica	17	0.77	26	0.59	62 (13)	0.64
Salvia	15	0.68	19	0.43	45 (14)	0.46
Nepeta	14	0.64	27	0.61	51 (13)	0.52
Jami:	**512**	**23.3**	**1064**	**24.21**	2239	**24.1**

**qavs ichida turkumning mintaqa florasidagi yetakchi turkumlar spektrida tutgan o‘rni ko‘rsatilgan.*

Astragalus turkumi mutlaq ustunlik qilib, turlar soni bo‘yicha bir qator qiyoslanadigan floralarda mazkur turkum uchun qayd etilgan ko‘rsatkichlardan sezilarli darajada yuqori turadi ((Тожибаев и др., 2015; Камелин, 2021). Keyingi o‘rinlarni 61 tur bilan ifodalangan *Allium* va 50 turni qamrab olgan *Cousinia* turkumlari egallaydi. Ushbu uchlikning Surxondaryo viloyati, O‘zbekiston va Markaziy Osiyo floralarining yetakchi turkumlari spektrida barqaror saqlanishi ularning florogenetik asosi umumiyligini tasdiqlaydi, ayrim turkumlar nisbiy ulushidagi farqlar esa mintaqaviy xususiyatlarni aks ettiradi.

Gagea, *Ranunculus*, *Artemisia*, *Ferula*, *Phlomoides*, *Scutellaria*, *Lappula*, *Nepeta* va *Salvia* turkumlarining salmoqli ishtiroki tadqiq etilgan floraning nisbatan xususiy florogenetik va ekologik xususiyatlarini ochib beradi. Janubi-G‘arbiy Pomir-Oloyning O‘zbekiston qismida ma’lum bo‘lgan *Gagea* turlarining 83% tadqiqot hududida jamlanganligi uni mazkur turkum xilma-xilligining eng muhim markazlaridan biri sifatida baholash imkonini beradi (Курбаниязова, 2025). Fan uchun yangi *Ranunculus tojibaevii* Schegol. & Turginov turining aniqlanishi *Ranunculus* turkumining Markaziy Osiyodagi ekologik amplitudasi haqidagi tasavvurlarni kengaytiradi hamda uning tarkibida tog‘ va balandtog‘ mintaqalarining quruq va ochiq yonbag‘irlariga moslashgan ixtisoslashgan turlar mavjudligini ko‘rsatadi (Щёголева и др.., 2022; Щёголева, 2025).

Tadqiqot hududi materiallari asosida tog‘ floralarining taksonomik tuzilishi hudud ko‘lami ta’siri, ekologik geterogenlik va ayrim taksonomik guruhlarning turlicha evolyusion faolligi o‘zaro ta’sirida shakllanishi tasdiqlandi. Yetakchi oilalar spektri tadqiqot hududining barqaror florogenetik mansubligini aks ettirsa, turkumlar spektri va ayrim turkumlarning miqdoriy tafovutlari uning mahalliy ekologik hamda biogeografik o‘ziga xosligini namoyon etadi. Olingan natijalar Surxondaryo viloyati florasini Afg‘oniston-Turkiston provinsiyasining floristik modeli doirasida shakllangan, mintaqaviy jihatdan yaxlit, biroq ichki tuzilishi bo‘yicha differensiasiyalangan tizim sifatida baholash imkonini beradi.


Uchinchi bobning “G‘arbiy Pomir-Oloyning Surxondaryo viloyati doirasidagi qismi florasiga oid ma’lumotlar to‘planish dinamikasi” deb nomlangan ikkinchi bo‘limida geobog‘langan ma’lumotlar massivining shakllanish tarixi to‘rt bosqich: 1941 yilgacha, 1941-1993, 1994-2020 va 2021-2024 yillar bo‘yicha tahlil qilingan. Shakllantirilgan ma’lumotlar bazasi floradagi turlarining tarqalishiga oid 67261 ta qaydlarni qamrab oladi. Ma’lumotlarning to‘planishi o‘ta notekis kechganligi hamda ko‘p jihatdan dala tadqiqotlarining jadalligi va gerbariy namunalarini yig‘ish ko‘lamiga bog‘liq bo‘lganligi aniqlangan.

Florani o‘rganishning sifat jihatidan yangi bosqichi 2021-2024 yillarda davlat dasturi bilan hamkorlikda amalga oshirilgan to‘r tizimli xaritalash ishlari bilan bog‘liq. Ushbu davr hissasiga umumiy ma’lumotlar hajmining 75% va flora tur tarkibining 88% oid qaydlar to‘g‘ri keladi. Taqqoslash uchun, 1941 yilgacha atigi 4581 ta qaydlar, ya’ni umumiy ma’lumotlar massivining 6,5% to‘plangan. Eng past tur boyligi esa 1994-2020 yillarga to‘g‘ri kelib, mazkur davrda 704 ta tur qayd etilgan. Olingan natijalar turlarning tarixan shakllangan tarqalish manzarasi nafaqat hududning haqiqiy floristik xilma-xilligini, balki tadqiqotlar jadalligi va ularning hududiy qamrovidagi tafovutlarni ham aks ettirishini ko‘rsatadi.

Markaziy Osiyoda ilk bor yirik ma’muriy hudud florasi 5×5 km o‘lchamdagi 884 ta indekslar asosida to‘r tizimli xaritalash bilan qamrab olindi. Jami floristik ma’lumotlar 820 ta indekslarda to‘plangan bo‘lib, bu tadqiqot hududining 92.8% to‘g‘ri keladi hamda floraning fazoviy tuzilishi, turlarning tarqalish qonuniyatlari va hududning floristik o‘rganilganlik darajasini yuqori aniqlikda baholash imkonini beradi (1-rasm). 26 tadan 100 tagacha tur qayd etilgan to‘r kataklari tadqiqot hududining qariyb yarmini qamrab oladi. Ular orasida 51-100 ta tur qayd etilgan to‘r kataklari eng yirik guruhni tashkil etib, ularning soni 213 taga, ulushi esa 26% teng.

Tur boyligi (SR) va gerbariy yig‘imlari zichligi (CD) ko‘rsatkichlarini qiyoslash ularning fazoviy taqsimlanishida umumiy muvofiqlik mavjudligini ko‘rsatdi, biroq mazkur ko‘rsatkichlar bir-birining o‘rnini to‘liq bosa olmaydi. Ayrim to‘r kataklarida SR ko‘rsatkichining past bo‘lishi floraning tur tarkibini boyligi bilan emas, balki etib borish qiyin bo‘lgan balandtog‘ va chegaraoldi hududlarining yetarlicha o‘rganilmaganligi, dala tadqiqotlarining mavsumiy cheklanishi, kataklarning tadqiqot hududi chegarasida qisman joylashganligi yoki o‘sish muhitlarining antropogen transformasiyasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu sababli tur boyligining fazoviy ko‘rsatkichlari gerbariy yig‘malari zichligi bilan birgalikda talqin qilinishi lozim. To‘r tizimli xaritadagi nol yoki past

qiymatlar har doim ham turlarning mavjud emasligi yoki xilma-xilligining pastligini anglatmaydi, balki to‘plangan ma’lumotlardagi bo‘shliqlarni aks ettirishi mumkin.



1-rasm. Tadqiqot hududining turlar xilma-xilligi (A) va yig‘malar zichligini (B) aks ettiruvchi to‘r tizimli xaritasi

Mazkur bobning “Botanik-geografik rayonlar florasining qiyosiy tahlili” deb nomlangan uchinchi bo‘limida G‘arbiy Hisor, Hisor-Darvoz va Panjoldi botanik-geografik okruglariga mansub beshta rayon florasining tur tarkibi o‘zaro qiyoslangan (5-jadval).

5-jadval

Tadqiqot hududidagi botanik-geografik rayonlarning turlar xilma-xilligini asosiy statistik ko‘rsatkichlari


Botanik-geografik rayonlar	2021-yilgacha oila/turkum/tur	2021-2024 yillarda oila/turkum/tur	Yakuniy natija oila/turkum/tur
Boysun	47/293/788	78/416/971	79/530/1591
Sangardak-To‘palang	78/399/1034	79/341/728	86/468/1385
Ko‘hitang	71/364/906	67/311/728	82/464/1326
Surxon-Sherobod	64/302/593	61/317/641	78/446/1091
Bobotog‘	61/258/536	68/314/669	71/404/992
Surxondaryo viloyati	92/586/2010	93/544/1663	96/615/2202

Turlarning botanik-geografik rayonlar bo‘yicha taqsimlanishi tahlili 853 tur, ya’ni flora umumiy turlar sonining qariyb 40% faqat bitta rayonda qayd etilganini, 349 tur esa barcha beshta rayonda uchrashini ko‘rsatdi. Faqat bir rayon doirasida tarqalgan turlarning eng ko‘p soni Sangardak-To‘palang va Surxon-Sherobod rayonlarida aniqlangan. Hududiy jihatdan cheklangan va keng tarqalgan turlar o‘rtasidagi bunday nisbat floraning yaqqol mozaik tuzilishga ega ekanligini ko‘rsatadi. Rayonlar floralarining juftlikdagi o‘xshashligi 31,45% oshmaydi, bu esa ularning hududiy differensiasiyalanish darajasi yuqori ekanligidan dalolat beradi. Rayonlarning aksariyati uchun Jakkar koeffisienti qiymatlari 28,42-31,45% oralig‘ida o‘zgaradi. Sangardak-To‘palang rayoni eng ajralgan mavqeni egallab, uning boshqa rayonlar floralari bilan o‘xshashlik darajasi 17,84-25,04% tashkil

etadi. Mazkur rayon florasining o‘ziga xosligi balandtog‘ va nisbatan gumid o‘sish muhitlarining ustunligi, daraxt-buta ekotizimlarining keng tarqalganligi, shuningdek, endem va relikt elementlar ulushining yuqoriligi bilan izohlanadi.

UPGMA usuli asosida o‘tkazilgan klaster tahlili rayonlar o‘rtasidagi floristik yaqinlik darajasi bir xil emasligini tasdiqladi. Boysun va Ko‘hitang rayonlari o‘zaro eng yaqin guruhni shakllantirib, unga Surxon-Sherobod rayoni qo‘shiladi (2-rasm).

Sangardak-To‘palang rayoni umumiy Hisor guruhi doirasida nisbatan ajralgan mavqeni egallaydi. Bobotog‘ rayoni esa alohida tarmoqni shakllantiradi. Bu holat uning Surxondaryo vodiysi orqali geografik jihatdan ajralib qolganligi, nisbatan qurg‘oqchil iqlimi, tog‘oldi relefi, doimiy suv oqimlarining mavjud emasligi va kserofit elementlarning ustunligi bilan bog‘liq. Juftlikdagi o‘xshashlik ko‘rsatkichlarining pastligi va klasterlar tuzilishi Tojibaev et al. (2016) tomonidan taklif etilgan O‘zbekiston florasini botanik-geografik rayonlashtirish sxemasining, asoslanganligini tasdiqlaydi.



2-rasm. Jakkard koeffisienti asosida UPGMA usulida tuzilgan botanik-geografik rayonlar floralarining o‘xshashlik dendrogrammasi


Shartli belgilar. Botanik-geografik rayonlar: B – Boysun; K – Ko‘hitang; S_SH – Surxon–Sherobod; S_T – Sangardak–To‘palang; Bb – Bobotog‘.

Uchinchi bobning to‘rtinchi bo‘limida tadqiqot hududi florasining hayotiy shakllari C. Raunkiær (1934) klassifikasiyasi asosida tahlil qilingan. Floraning biomorfologik spektrida 976 tur, ya’ni umumiy floraning 44,32% tashkil etuvchi gemikriptofitlar ustunlik qiladi. Salmoqli ulushni 698 tur (31,7%) bilan terofitlar tashkil etadi. Kriptofitlar 275 tur (12,49%), xamefitlar 143 tur (6,49%), fanerofitlar esa 110 tur (5%) bilan ifodalangan. Bunday nisbat floraning gemikriptofit-terofit xususiyatiga ega ekanligini belgilaydi va tog‘ hamda arid-kontinental sharoitlar uyg‘unligini aks ettiradi. Ko‘p yillik o‘t o‘simliklar floraning barqaror tuzilmaviy o‘zagini shakllantirsa, terofitlar ulushining yuqoriligi namlanishning yaqqol mavsumiyligi va vegetasiya uchun qisqa muddatli qulay davrga moslashish bilan bog‘liq. Kriptofit komponenti noqulay mavsumni erosti yangilanish organlari hisobiga o‘tkazuvchi geofitlar va bahorgi efemeroidlarning ahamiyatini ifodalaydi,

fanerofitlar va xamefitlarning cheklangan ishtiroki esa ularning daraxt-butazor, vodiy, quruq toshloq va yaxshi drenajlangan yashash muhitlariga nisbatan torroq moslashganligi bilan izohlanadi.

Floraning biomorfologik tuzilishi uning taksonomik tashkillanishi bilan uzviy bog‘liq ekanligi aniqlandi. Gemikriptofitlarning asosiy xilma-xilligi, asosan, Fabaceae, Asteraceae, Poaceae, Lamiaceae va Apiaceae, terofitlarniki esa Asteraceae, Brassicaceae, Poaceae, Amaranthaceae va Fabaceae oilalarida jamlangan. Kriptofit hayotiy strategiyasi Amaryllidaceae, Liliaceae, Iridaceae va Asphodelaceae oilalari uchun eng xosdir. Xamefit komponentining shakllanishida Lamiaceae, Fabaceae va Asteraceae, fanerofit komponentining shakllanishida esa Rosaceae, Tamaricaceae, Polygonaceae va Salicaceae oilalari yetakchi o‘rin tutadi. Demak, hayotiy shakllar spektri nafaqat zamonaviy ekologik sharoitlarni aks ettiradi, balki floraning tarixan shakllangan taksonomik tuzilishi natijasi ham hisoblanadi.

Uchinchi bobning beshinchi bo‘limida turlarning to‘r tizimli xaritada egallagan kataklari soni asosida ularning fazoviy uchrashi tahlil qilingan. Floraning yarmidan ko‘p qismini o‘ntadan ortiq bo‘lmagan katakda qayd etilgan turlar tashkil etishi, yuztadan ortiq katakda uchraydigan turlar esa nisbatan kichik guruhdan iborat ekanligi aniqlangan. Bu flora tarkibida hududiy jihatdan cheklangan va o‘rtacha tarqalgan taksonlar ustunligini, keng hududiy qamrovga ega turlar ulushi esa nisbatan kam ekanligini ko‘rsatadi. Eng ko‘p to‘r kataklarini *Plantago lanceolata*, *Poa bulbosa* va *Convolvulus arvensis* egallaydi (3-rasm).



3-rasm. To‘r tizimli xarita indekslari bo‘yicha eng keng tarqalgan turlar

Ularning keng tarqalganligi ekologik amplitudasining kengligi, antropogen transformasiyalarga chidamliligi va turli o‘sish muhitlarini egallash qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, olingan ko‘rsatkichlarni ma’lumotlar yig‘ilishining notekisligini hisobga olgan holda talqin qilish lozim. Oddiy, yaxshi ko‘zga tashlanadigan va oson aniqlanadigan turlarning, ayniqsa, borish oson va muntazam o‘rganiladigan yashash muhitlarida qayd etilish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Shu sababli egallangan to‘r kataklari soni turning real mo‘lligi yoki tarqalish

doirasining mutlaq kengligini bevosita ifodalovchi koʻrsatkich emas, balki uning biohujjatlashtirilgan fazoviy uchrashuvchanligi koʻrsatkichi sifatida qaraladi.

Turkumlar darajasida eng keng fazoviy qamrov *Astragalus* turkumi uchun aniqlangan boʻlib, uning turlari toʻr tizimli xaritaning 515 ta katagida, ya'ni tadqiqot hududining 58% qayd etilgan. Oilalar orasida Fabaceae yetakchi oʻrinni egallab, uning vakillari 721 ta toʻr katagida (81%) uchraydi; keyingi oʻrinlarda Asteraceae (76%), Poaceae (73%) va Brassicaceae (72%) oilalari turadi. Fazoviy jihatdan eng keng ifodalangan taksonlar tarkibi, umuman olganda, tadqiqot hududi florasining yetakchi oila va turkumlari spektriga muvofiq keladi. Fabaceae, Asteraceae va Poaceae floraning asosiy polimorf oʻzagini tashkil etsa, *Astragalus* turkumlar orasida turlar xilma-xilligi boʻyicha birinchi oʻrinni egallaydi. Yuqori taksonomik boylikning keng fazoviy qamrov bilan uygʻunligi olingan natijalarning qonuniyligini tasdiqlaydi hamda yetakchi oila va turkumlar floraning nafaqat miqdoriy, balki hududiy asosini ham shakllantirishini koʻrsatadi.

Dissertasiyada eng keng tarqalgan turlar va turkumlarning fazoviy taqsimlanishi batafsil tahlil qilingan, shuningdek, Asteraceae, Fabaceae, Poaceae va Brassicaceae oilalari misolida toʻr tizimli xaritalar asosida tur boyligi va gerbariy yigʻimlari zichligining fazoviy qonuniyatlari koʻrsatib berilgan.

Uchinchi bobning oltinchi boʻlimida toʻr tizimli xarita kataklarining floristik ma'lumotlar bilan toʻyinganlik darajasi baholangan. "Toʻyinganlik" tushunchasi toʻr tizimli xaritalari kataklarning ehtimoliy eng yuqori tur boyligi emas, balki har bir katakda hujjatlashtirilgan tur tarkibining toʻliqligi va reprezentativligi anglatadi. Shu jihatdan mazkur koʻrsatkich floristik oʻrganilganlik haqidagi an'anaviy tushunchani toʻldiradi. Yuksak oʻsimliklarning 2202 turini qamrab olgan flora tarkibi yakunlangan roʻyxat sifatida emas, balki hozirgi vaqtda hujjatlashtirilgan minimum sifatida qaraladi. Bu holat transchegaraviy, balandtogʻ va etib borish qiyin boʻlgan hududlar, eng avvalo, Sangardak-Toʻpalang botanik-geografik rayonidagi daryo havzalarining yuqori qismlari, Koʻhitang tizmasi va Bobotogʻning ayrim qismlari bir xil darajada oʻrganilmaganligi; yangi taksonlarni topilishi hamda *Allium, Astragalus, Iris, Ranunculus* va *Cousinia* kabi polimorf turkumlarni taksonomik reviziya qilish ishlari davom etayotganligi (Shchegoleva et al., 2025; Tojibaev et al., 2025; Yusupov et al., 2025; Karimov et al., 2026); Surxon-Sherobod vodiysining antropogen transformasiyalangan landshaftlarida flora tarkibining adventiv turlar hisobiga boyib borishi (Juramurodov et al., 2025), shuningdek, bir necha oʻn yil davomida gerbariy yigʻimlari bilan tasdiqlanmagan ayrim kamyob va tor endemik turlarning zamonaviy holati noaniqligi bilan bogʻliq (Tojibaev et al., 2022). Demak, flora tarkibi dinamik xususiyatini saqlab qoladi va yangi topilmalar natijasida ham, ayrim turlarning mahalliy yoʻqolishi oqibatida ham oʻzgarishi mumkin.

Toʻyinganlik darajasini baholashda bir-birini toʻldiruvchi uchta mezon: tur boyligi (SR), gerbariy yigʻimlari zichligi (CD) va yetakchi oilalar spektrining shakllanganlik darajasidan foydalanilgan. Bunda SR aniqlangan turlar sonini, CD ularni hujjatlashtirish jadalligini ifodalaydi, ammo oʻsimliklarning tabiatdagi haqiqiy moʻlligini aks ettirmaydi. Turlarga yetarlicha boy kataklarda mintaqaviy

floraga xos yetakchi oilalar ketma-ketligining takrorlanishi esa ma’lumotlar tuzilmaviy to‘liqligining sifat ko‘rsatkichi sifatida qaralgan.

Taklif etilgan yondashuv floristik ma’lumotlari yetarlicha to‘liq va reprezentativ bo‘lgan kataklarni, obyektiv ravishda kam turli hududlarni hamda past ko‘rsatkichlar, eng avvalo, dala tadqiqotlaridagi bo‘shliqlarni aks ettiradigan hududlani o‘zaro farqlash imkonini bergan.

Dissertasiyaning “Endemizm tahlili” deb nomlangan to‘rtinchi bobi floraning endem va kamyob elementlariga, ularning taksonomik, fazoviy tahlili hamda muhofaza qilishning ustuvor masalalariga bag‘ishlangan. Bobning birinchi bo‘limida G‘arbiy Pomir-Oloyning Surxondaryo viloyati qismi florasi, asosan, G‘arbiy Pomir-Oloy doirasida tarqalgan 57 turkumga mansub 112 endem turni qamrab olishi aniqlangan. Ushbu mintaqaviy fraksiya tarkibida areallari Surxondaryo viloyati hududi bilan cheklangan 68 endem ajratilgan. Ular endem turlar umumiy sonining 60,7% tashkil etib, floraning tor lokal differensiasiyalanish jarayonlari muhim ahamiyatga egaligini hamda nisbatan kichik ma’muriy hudud doirasida mikroendemlar yuqori darajada jamlanganligini ko‘rsatadi. Endemizm fraksiyasi vakillari notekis taqsimlangan: yetakchi o‘rinni Asteraceae, Fabaceae, Lamiaceae va Amaryllidaceae oilalari egallasa, turkumlar orasida *Astragalus*, *Cousinia*, *Scutellaria*, *Jurinea* va *Allium* eng yuqori ulushga ega.

Tadqiqot hududi endemlarning tahlili uchun 2022 yilda e’lon qilingan 63 turdan iborat ro‘yxat dastlabki asos bo‘lib xizmat qilgan (Tojibaev et al., 2022). Dissertasiya tadqiqoti doirasida mazkur ma’lumotlar massivi dala ishlari natijalari, TASH, LE va MW gerbariylari namunalarini tanqidiy tahlil qilish hamda yangi geobog‘langan ma’lumotlar bilan sezilarli darajada to‘ldirilgan. Dastlabki ro‘yxat nashr etilganidan so‘ng qat’iy endemlar fraksiyasi *Ranunculus tojibaevii*, *Fritillaria yakutiae, Iris anvarbekii*, *Allium sunhangii* va *Hedysarum sunhangii* bilan boyitilib, ularning umumiy soni 68 taga etgan. Shu tariqa, muallifning hissasi nafaqat endem turlar tarkibini kengaytirish, balki floraning eng tor arealli elementlari zamonaviy uchrash joylari, areallari konfigurasiyasi va ularga oid ma’lumotlarning fazoviy reprezentativligini aniqlashtirishdan ham iborat.

To‘r tizimli xaritalash natijalari qat’iy endemlar hudud bo‘ylab o‘ta notekis tarqalganligi va fazoviy jihatdan ajralgan o‘choqlarni shakllantirishini ko‘rsatgan. Ularning asosiy konsentrasiya markazlari Sangardak-To‘palang, Boysun va Ko‘hitang botanik-geografik rayonlarining o‘rta va balandtog‘ mintaqalariga to‘g‘ri keladi. Endemlar qayd etilgan to‘r kataklarining aksariyatida faqat bitta tur uchraydi, ularning yuqori konsentrasiyasiga ega kataklar esa cheklangan sondagi mahalliy markazlarni hosil qiladi. Bu holat orografik izolyasiya, balandlik bo‘yicha differensiasiya va edafik ixtisoslashuvning o‘zaro uyg‘unligi, ayniqsa, gips, ohaktosh, qizil rangli gil va qumtoshlardan tarkib topgan ola rangli tog‘ jinslari ochilmalari bilan belgilanadi. Ushbu substratlarning fazoviy ajralganligi va o‘ziga xos kimyoviy tarkibi tor ixtisoslashgan hamda mikroendemik taksonlarning shakllanishi uchun sharoit yaratadi (Попов, 1927; Камелин, Хасанов, 1987; Камелин, 2017). Demak, tadqiqot hududi endemizmning yagona va bir xil markazi emas, balki G‘arbiy Pomir-Oloyning turli orografik va edafik sharoitlarida shakllangan mahalliy o‘choqlar tizimidan iborat.

Endemizm fraksiyasi tahlilining mantiqiy davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga (Хасанов, 2019) kiritilgan turlar baholangan. Tadqiqot hududida 68 turkum va 39 oilaga mansub 126 ta Qizil kitob turi qayd etilgan bo‘lib, ular floraning 5,7% tashkil etadi. Kamyob turlarning eng ko‘p soni Fabaceae, Asteraceae va Lamiaceae, shuningdek, Liliaceae, Apiaceae, Asphodelaceae va Amaryllidaceae oilalari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Endem va muhofaza qilinadigan fraksiyalardagi ayrim turlar konsentrasiyasi yuqori bo‘lgan yetakchi oilalarning o‘zaro mos kelishi floraning mintaqaviy o‘ziga xosligini shakllantirishda eng faol ishtirok etgan taksonomik liniyalar bir vaqtning o‘zida eng zaif va muhofazaga muhtoj turlarning ham katta qismini o‘zida mujassamlashtirganligini ko‘rsatadi.


G‘arbiy Pomir-Oloyning 112 ta endemlaridan 36 tasi O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan (Хасанов, 2019), ya’ni endemizm fraksiyasining qariyb har uchinchi vakili muhofaza maqomiga ega. Bunday nisbat endemizmning areallar cheklanganligi, tor ekologik ixtisoslashuv va yashash muhitlari transformasiyasiga yuqori sezgirlik bilan uzviy bog‘liqligini aks ettiradi. Ola rangli tog‘ jinslari ochilmalariga xos qat’iy endemiklar ayniqsa zaif bo‘lib, ularning populyasiyalari ko‘pincha kichik maydonlarni egallaydi va bir-biridan fazoviy jihatdan ajralgan holda joylashadi (Камелин, 2017; Хабибуллаев, 2023).

Dala tadqiqotlari davomida Qizil kitobda «0» toifasiga kiritilgan (Хасанов, 2019) *Astragalus alexejii*, *Allium rhodanthum*, *Dipcadi turkestanicum* va *Nonea calceolaris* populyatsiyalarining hozirgi kunda mavjudligi tasdiqlanmagan. Ularning qayta topilmaganligi mazkur turlarning butunlay yo‘qolganligini uzil-kesil isbotlamaydi, biroq tarixiy uchrash joylarida maqsadli tadqiqotlar o‘tkazish, uzoq muddatli monitoringni tashkil etish va ularning zamonaviy muhofaza maqomini qayta baholash zarurligini ko‘rsatadi. *Locus classicus* va unga tutash hududlarda ko‘p yillar davomida olib borilgan qidiruvlar ijobiy natija bermagan *Dipcadi turkestanicum* turi alohida e’tiborni talab qiladi (Tojibaev et al., 2022).

Dissertasiyaning “**G‘arbiy Pomir-Oloy yuksak o‘simliklari filogenetik xilma-xilligi va floristik komplekslar tuzilishining balandlik gradienti bo‘ylab o‘zgarishi**” deb nomlangan beshinchi bobi taksonomik va filogenetik xilma-xillikning fazoviy hamda balandlik bo‘yicha differensiasiyalanish qonuniyatlarini aniqlashga bag‘ishlangan.

Beshinchi bobning birinchi bo‘limida 64,5 mingdan ortiq geobog‘langan qaydlar asosida G‘arbiy Pomir-Oloyning Surxondaryo viloyati doirasidagi qismi florasining balandlik bo‘yicha differensiasiyalanish qonuniyatlari aniqlangan. Tur boyligi yaqqol gumbazsimon bog‘liqlik bilan tavsiflanadi (4A, B-rasm).

200–300 m balandliklardagi 300–310 turdan 1000–1100 m oralig‘idagi eng yuqori ko‘rsatkichgacha ortib, bu balandliklarda 910-919 tur, ya’ni flora umumiy tur tarkibining 40% idan ortig‘i qayd etilgan, shundan so‘ng baland tog‘lar tomon izchil kamayib boradi. 3300-3500 m balandliklarda atigi 10-25 tur qayd etilgan bo‘lsa, subnival va nival balandlik mintaqalarida esa faqat ayrim yakka turlar uchraydi. Turlar boyligi bilan balandlik o‘rtasidagi mazkur bog‘liqlikning chiziqli bo‘lmagan xususiyati umumlashtirilgan additiv model (Generalized Additive Model, GAM) yordamida statistik jihatdan tasdiqlandi ($R^2 = 0.913$; $p < 0.001$).



4-rasm. Tur boyligi (A, B) va standartlashtirilgan filogenetik xilma-xillik: sesPD (C, D)ning balandlik bo‘yicha dinamikasi hamda fazoviy taqsimlanishi

Filogenetik xilma-xillik ham balandlik bo‘yicha o‘xshash dinamikani namoyon etib, eng yuqori qiymatga o‘rta balandliklar oralig‘ida erishadi. Turlar boyligi ta’siri hisobga olinib standartlashtirilgandan keyin filogenetik xilma-xillikning standartlashtirilgan effekt kattaligi (standardized effect size of phylogenetic diversity, sesPD) o‘rta balandlik mintaqalarida asosan musbat, balandlik gradientining quyi va yuqori qismlarida esa manfiy qiymatlarga ega ekanligi aniqlandi (4 C, D-rasmlar). Bu o‘rta balandlik mintaqalarida turli evolyusion tarmoqlarga mansub turlar kengroq ifodalanganligini, past tog‘ va baland tog‘ mintaqalarida esa filogenetik xilma-xillikning turlar boyligiga nisbatan kutilgan darajadan pastligini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, o‘rta balandliklar floraning ham taksonomik, ham evolyusion xilma-xilligi eng yuqori darajada jamlangan hudud hisoblanadi. Dissertasiyada yetakchi oilalar turkumlar boyligining har 100 metrlik balandlik intervallari bo‘yicha o‘zgarishi ham batafsil tahlil qilingan. Ularning taksonomik tuzilishi 600-1600 m balandliklarda eng yuqori murakkablik darajasiga etishi, 1700-1800 m dan yuqorida esa aksariyat oilalar xilma-xilligi izchil kamayib borishi va 3000 m dan keyin keskin kamayishi ko‘rsatilgan.

Beshinchi bobning “Floristik komplekslar filogenetik tuzilishining balandlik gradienti bo‘ylab o‘zgarishi” deb nomlangan ikkinchi bo‘limi birgalikda uchraydigan turlarning evolyusion yaqinligini baholashga bag‘ishlangan. Balandlik ortib borgan sari o‘rtacha juftlikdagi filogenetik masofa MPD va uning standartlashtirilgan qiymati - sesMPD izchil kamayishi, NRI indeksi esa ortishi aniqlangan (R^2=0.45; $p<0.001$). Bu balandtog‘ mintaqasida filogenetik klasterlanish kuchayishini, ya’ni floristik komplekslar, asosan, cheklangan doiradagi o‘zaro yaqin qarindosh turlardan shakllanishini ko‘rsatadi. NTI indeksi

U-simon dinamika bilan tavsiflanadi. Uning qiymatlari 1300–2500 m balandliklar oralig‘ida pasayib, undan yuqorida yana ortadi. Demak, tog‘ mintaqasining o‘rta balandliklardagi floristik komplekslar evolyusion jihatdan bir-biridan uzoqroq taksonlarning kengroq ishtiroki bilan ajralib turadi, gradientning quyi va yuqori qismlarida esa yaqin qardosh evolyusion liniyalarning ahamiyati ortadi. Aniqlangan qonuniyat ekologik jihatdan ekstremal sharoitlarning filtrlovchi ta’siri kuchayishiga muvofiq keladi (Ibragimov et al., 2026).

Filogenetik β-xilma-xillik tahlili balandlik ortib borgan sari floristik komplekslar o‘rtasidagi umumiy farqlanish darajasi oshishini ko‘rsatdi. Biroq bu jarayon bir filogenetik tarmoqlarning boshqalari bilan almashinishi natijasida emas, balki asosan ularning izchil ravishda qisqarib borishi hisobiga yuz berishi aniqlandi. Baland tog‘ mintaqalarida ichma-ichlik komponentining ulushi 0.70–0.78 gacha etadi.


Shunday qilib, balandlik bo‘yicha differensiasiya evolyusion liniyalarning to‘liq almashinishi bilan emas, balki ular sonining izchil qisqarishi bilan belgilanadi. Balandtog‘ floristik komplekslari quyi va o‘rta balandliklarda tarqalgan evolyusion liniyalar kengroq majmuasining filogenetik jihatdan qashshoqlashgan qismini tashkil etadi.

Beshinchi bobning “Turlar boyligi va filogenetik ko‘rsatkichlarning o‘rtacha yillik harorat hamda yillik yog‘in miqdori gradientlari bo‘ylab o‘zgarishi” deb nomlangan uchinchi bo‘limida G‘arbiy Pomir-Oloyning Surxondaryo viloyati doirasidagi qismi florasining taksonomik va filogenetik xilma-xilligi iqlim sharoitlari bilan, asosan, nochiziqli bog‘langanligi aniqlangan. O‘rtacha yillik harorat gradienti bo‘ylab tur boyligi 8–12 °C da eng yuqori qiymatga etadi (R^2=0.836; $p<0.001$), filogenetik xilma-xillik optimumi esa 12–15 °C oralig‘iga siljigan (R^2=0.872; $p<0.001$). Ushbu nomuvofiqlik maksimal taksonomik to‘yinganlik va evolyusion liniyalarning eng keng ishtiroki biroz farqlanuvchi harorat sharoitlarida shakllanishini ko‘rsatadi. MPD ko‘rsatkichi ham shunga o‘xshash gumbazsimon dinamikani namoyon etadi, harorat ortishi bilan NRI qiymatining pasayishi esa gradientning sovuq qismida umumiy filogenetik klasterlanish kuchliroq ekanligini ko‘rsatadi. NTI indeksining U-simon o‘zgarishi ekstremal harorat sharoitlarida turlarning terminal filogenetik yaqinligi ortishini, mo‘tadil harorat oralig‘ida esa ushbu yaqinlikning susayishini aks ettiradi (5-rasm).

Yillik yog‘in miqdori gradienti bo‘ylab tur boyligi ham yaqqol gumbazsimon bog‘liqlik bilan tavsiflanadi: 100–200 mm yog‘in sharoitida 710–715 turdan 400–500 mm da 1671 turgacha ortib, shundan so‘ng keskin kamayadi va 700–800 mm da taxminan 20 turni tashkil etadi. Filogenetik xilma-xillik va MPD ham o‘xshash dinamikani namoyon etib, mo‘tadil namlanish sharoitida eng yuqori qiymatlarga etadi. Standartlashtirilgan sesPD va NTI ko‘rsatkichlari namlanish yetarli bo‘lmagan yoki ortiqcha bo‘lgan sharoitlarda turlarning filogenetik yaqinligi kuchayishi, gradientning oraliq qismida esa birgalikda uchraydigan evolyusion liniyalar spektri kengayishini ko‘rsatadi. Biroq ushbu tendensiyalar tur boyligi va PD dagi o‘zgarishlarga nisbatan statistik jihatdan kuchsizroq ifodalangan (5-rasm).

Shunday qilib, o‘rtacha yillik harorat va yillik yog‘in miqdori taksonomik hamda evolyusion xilma-xillik eng yuqori qiymatlarga etadigan ekologik

optimumlarni shakllantiradi. Har ikki gradientning ekstremal qiymatlarida ifodalangan filogenetik liniyalar spektri qisqaradi, bu esa iqlimiy cheklovlarning filtrlovchi roli kuchayishiga muvofiq keladi. Dissertasiyada PD, sesPD, MPD, sesMPD, NRI va NTI (Nearest Taxon Index eng yaqin takson indeksi) ko‘rsatkichlarining har ikki iqlim gradienti bo‘ylab o‘zgarishi batafsil tahlil qilingan.



5-rasm. Tadqiqot hududi florasida o‘rtacha yillik harorat (chapda) va yillik yog‘in miqdori (o‘ngda) gradienti bo‘ylab turlar boyligi hamda filogenetik xilma-xillik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi

XULOSALAR

1. Floristik ma’lumotlarni tanqidiy-taksonomik jihatdan qayta ishlash va umumlashtirish natijasida Surxondaryo viloyati doirasida G‘arbiy Pomir-Oloy florasining zamonaviy taksonomik tarkibi aniqlandi hamda uning konspekti tuzildi. Fan uchun yangi turlar hamda turli darajadagi floristik topilmalarning aniqlanishi G‘arbiy Pomir-Oloyning yuqori taksonomik o‘ziga xoslikka ega ekanligini tasdiqlaydi va mintaqada kelgusida ham floristik hamda taksonomik kashfiyotlarni amalga oshirish imkoniyatlari saqlanib qolayotganligini ko‘rsatadi.
2. To‘r tizimli xaritalash usulining qo‘llanilishi G‘arbiy Pomir-Oloyning Surxondaryo viloyati doirasidagi qismi florasiga oid Markaziy Osiyodagi eng yirik geobog‘langan ma’lumotlar massivini yaratish, aniqlangan turlar xilma-xilligining fazoviy notekisligini tavsiflash hamda keyingi maqsadli tadqiqotlarni talab etadigan hududlarni belgilash imkonini berdi.
3. To‘r tizimli xarita kataklarining floristik to‘yinganligi tur boyligi, gerbariy yig‘imlari zichligi va yetakchi oilalar spektri barqarorligi ko‘rsatkichlarini birgalikda tahlil qilish asosida baholandi. Bu yetarlicha o‘rganilmagan kataklarni tur boyligi tabiiy ravishda past bo‘lishi ehtimol qilingan hududlardan farqlash imkonini berdi.
4. Yetakchi oilalar spektri tadqiq etilgan floraning Afg‘on-Turkiston provinsiyasiga mansubligini tasdiqlasa, turkumlar spektri uning mintaqaviy o‘ziga xosligini ochib beradi. *Astragalus, Allium* va *Cousinia* turkumlarining ustunlik qilishi, shuningdek *Gagea, Ferula, Lappula*, *Phlomoides, Scutellaria, Nepeta* va *Salvia* turkumlarining yuqori darajada namoyon bo‘lishi mazkur florada Markaziy

Osiyoga xos hamda keng Yevroosiyo florogenetik aloqalarining uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘lishini aks ettiradi.

5. Floraning biomorfologik spektri gemikriptofitlar va terofitlarning miqdoriy ustunligi hamda xamefitlarning yaqqol balandlik ixtisoslashuvini o‘zida uyg‘unlashtiradi. Xamefitlar o‘rta va balandtog‘ mintaqalarda, ayniqsa, Boysun rayonida o‘simlik qoplamining o‘ziga xos fizionomik qiyofasini shakllantiradi. Bu hayotiy shakllarning ahamiyati nafaqat ularning tur boyligi, balki fazoviy-landshaft funksiyasi bilan ham belgilanishini ko‘rsatadi.

6. Beshta botanik-geografik rayon florasining qiyosiy tahlili ularning tur tarkibi jihatidan sezilarli farqlanishini ko‘rsatdi. Eng yuqori tur boyligi Boysun rayoniga xos bo‘lsa, Sangardak-To‘palang rayoni tur tarkibining o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi, Bobotog‘ rayoni esa floristik jihatdan alohida mavqeni egallaydi. Turlarning qariyb 40% faqat bitta botanik-geografik rayonda qayd etilgan, rayonlar floralarining juftlikdagi o‘xshashligi esa 32% oshmaydi. Bu qabul qilingan botanik-geografik rayonlashtirish sxemasining asoslanganligini tasdiqlaydi.

7. Flora tarkibida G‘arbiy Pomir-Oloyning 112 ta endemlar aniqlangan bo‘lib, ulardan 68 tasining, ya’ni 60,7% areali Surxondaryo viloyati hududi bilan cheklangan. Mahalliy endemizmning asosiy o‘choqlari Boysun, Sangardak-To‘palang va Ko‘hitang rayonlarining o‘rta va balandtog‘ mintaqalariga, shuningdek, ola rangli, gipsli va karbonatli tog‘ jinslarining fazoviy jihatdan ajralgan ochilmalariga to‘g‘ri keladi. Tadqiq etilgan floraning 126 turi, jumladan, 36 endem tur O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan.

8. Markaziy Osiyo tog‘ floralari uchun ilk bor yagona geofazoviy tizimda tur va filogenetik xilma-xillikning balandlik, harorat va yillik yog‘in miqdori gradientlari bo‘ylab o‘zgarishi baholandi. Xilma-xillikning eng yuqori ko‘rsatkichlari o‘rta tog‘ mintaqasida va mo‘tadil iqlim sharoitlariga to‘g‘ri kelishi, balandtog‘ mintaqasida hamda harorat va namlanish gradientlarining ekstremal qiymatlarida esa filogenetik klasterlanish kuchayishi aniqlandi. Balandtog‘ mintaqasi florasi evolyusion liniyalarning to‘liq almashinishi natijasida emas, balki quyi va o‘rta balandliklarda mavjud bo‘lgan evolyusion liniyalar majmuasining izchil qisqarishi hisobiga shakllanadi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ БОТАНИКИ

ИНСТИТУТ БОТАНИКИ

ИБРАГИМОВ АКРАМ ЖАВЛИЕВИЧ

ТАКСОНОМИЯ И ПРОСТРАНСТВЕННАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ ФЛОРЫ ЗАПАДНОГО ПАМИРО-АЛАЯ (В ПРЕДЕЛАХ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)

03.00.05 - Ботаника

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАТЦИИ ДОКТОРА НАУК (DSc) ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент - 2026

Тема диссертации доктора наук (DSc) по биологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан под номером B2026.2.DSC/B318.

Диссертация выполнена в Институте ботаники.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.botany.uz) и информационно-образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziyonet.uz).

Научный консультант: **Тожибаев Комил Шаробитдиновича**
доктор биологических наук, академик

Официальные оппоненты:

Ведущая организация:

Защита диссертации состоится _____ 2026 года в 14^{00} на заседании Научного совета DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M при Институте ботаники АНРУз. (Адрес: 100125, г. Ташкент, ул. Дурмон йули, дом 32. Актовый зал Института ботаники АН РУз. Тел.: (+99871) 262-37-95, факс (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института ботаники (зарегистрирована за _____). Адрес: 100125, г. Ташкент, ул. Дурмон йули, дом 32. Тел.: (+99871) 262-37-95.

Автореферат диссертации разослан ___ _____ 2026 года.
(реестр Протокола рассылки № ____ от __ _____ 2026 года).

Б.А. Адилов
Заместитель председателя Научного Совета
по присуждению учёных степеней,
д.б.н., старший научный сотрудник

А.В. Махмудов
Ученый секретарь Научного Совета
по присуждению учёных степеней,
PhD, старший научный сотрудник

Х.Ф. Шомуродов
Председатель Научного
семинара при Научном Совете по
присуждению учѐных
степеней, д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc)

Актуальность и востребованность темы диссертации. Сохранение биологического разнообразия в условиях глобального изменения климата, трансформации природных ландшафтов и возрастающей антропогенной нагрузки требует перехода от традиционных методов анализа флоры к количественно обоснованному анализу её пространственной организации. Современная флористика всё в большей степени опирается на стандартизированные геопривязанные данные, позволяющие сопоставлять видовой состав территорий, выявлять закономерности распространения растений, оценивать эндемизм, филогенетическое разнообразие и степень обеспеченности отдельных регионов фактическими данными. Одним из наиболее результативных инструментов такого анализа является сеточное картирование, обеспечивающее единый пространственный формат интеграции полевых наблюдений, гербарных материалов и сведений из цифровых информационных систем.

Вместе с тем полнота и качество флористических данных в мире остаются крайне неоднородными. Особенно остро эта проблема проявляется в Центральной Азии, которая отличается высоким таксономическим разнообразием, сложной орографией, выраженной контрастностью природных условий и значительным числом эндемичных и узкоареальных видов, но при этом всё ещё недостаточно представлена в глобальных системах по биоразнообразию. Значительная часть накопленных за почти два столетия сведений сохраняется в виде исторических гербарных коллекций, печатных флористических сводок и полевых записей, не обеспеченных точными географическими координатами.

На этом фоне особую актуальность приобретает развитие сеточного картирования в Узбекистане, который в последние годы занимает одно из ведущих мест в Центральной Азии по последовательности и масштабу внедрения пространственных методов во флористические исследования. Существенный импульс этому направлению придали разработка современной схемы ботанико-географического районирования страны, реализация программы нового издания «Флоры Узбекистана» и проведение серии исследований по инвентаризации и сеточному картированию флоры отдельных горных районов.

В этой связи особое значение приобретают Концепция охраны окружающей среды Республики Узбекистан до 2030 год[1]

[1] Указ Президента Республики Узбекистан от 30 октября 2019 года № УП–5863 «Об утверждении Концепции охраны окружающей среды Республики Узбекистан до 2030 года» // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. – 31.10.2019 г.

Стратегия развития Нового Узбекистана[2], а также стратегические и нормативно-правовые документы, регулирующие вопросы сохранения биологического разнообразия, ведения Государственного кадастра объектов растительного мира и издания томов Красной книги Республики Узбекистан. В указанных документах в качестве приоритетных задач определены охрана биологических ресурсов, оценка современного состояния флоры и создание цифровых баз данных о биологическом разнообразии.

В рамках настоящей работы апробировано сеточное картирование Западного Памиро-Алая в пределах Сурхандарьинской области с использованием ячеек размером 5×5 км^2, создан крупнейший в Центральной Азии массив геопривязанных данных и сформирована цифровая основа для её таксономического, биогеографического и геопространственного анализа. Разработан подход к оценке флористической насыщенности ячеек, объединяющий показатели видового богатства, плотности сборов и устойчивости спектра ведущих семейств.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан. Настоящее исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан В. «Сельское хозяйство, биотехнологии, экология и охрана окружающей среды».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации[3]. Научные исследования, направленные на инвентаризацию флоры, картографирование распространения растений на основе регулярной сетки, оцифровку гербарных данных, выявление пространственных закономерностей флористического разнообразия и оценку биологического разнообразия, проводятся в ведущих научно-исследовательских учреждениях, университетах и профильных организациях мира, среди которых Finnish Museum of Natural History, University of Helsinki (Финляндия), Botanical Society of Britain and Ireland (Великобритания и Ирландия), Institute of Botany of the Czech Academy of Sciences (Чехия), Jagiellonian University (Польша), Sociedade Portuguesa de Botânica (Португалия), InfoFlora (Швейцария), Institute of Botany, Chinese Academy of Sciences (Китай), Atlas of Living Australia, CSIRO (Австралия).

В результате проведённых в мире исследований по инвентаризации флоры, сеточному картированию географического распространения растений, обобщению флористических данных и их геопространственному анализу получен ряд результатов, в том числе: атласы географического распространения высших растений Европы, составленные на основе сетки с ячейками размером 50×50 км^2 (University of Helsinki, Финляндия), результаты сравнительной оценки исторического и современного распространения видов растений по ячейкам сетки размером 10×10 км^2 и 2×2 км^2 (Botanical Society of

[2] Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП–60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы».

[3] Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации подготовлен на основе материалов, размещённых на сайтах www.dissercat.com, www.researchgate.net, www.webofscience.com, www.scopus.com, www.gbif.org, researchportal.helsinki.fi, plantatlas2020.org, www.preslia.cz, flora-on.pt, www.infoflora.ch, www.sciencedirect.com, а также других научных источников.

